

BADIIY ASARDA EMOTSIONAL VA ESTETIK JARAYONLAR FIZIOLOGIYASI MASALASINING O'RGANILISH TARIXI

Habiba Atabayevna YAKUBOVA

katta o'qituvchi

Qashqadaryo viloyati

Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi hayotiy

faoliyat xavfsizligi o'quv markazi

Qarchi, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy asar tahlilida psixologizm bilan birga fiziologizmning ham o'rni, uning inson emotsiyalarini ko'rsatishdagi mohiyati haqida fikr yuritiladi. Fiziologizm tarixi, uning alohida soha sifatidagi rivoji, badiiy tahlilga kirib kelishi bilan bog'liq muammolar yoritiladi. Shuningdek fiziologizm va psixologizmning bir butun ajralmas emas, balki ikkita soha ekani va qaysidir o'rinlarda kesishishini ko'rsatib o'tishga harakat qilinadi.

Tayanch so'zlar: psixologizm, fiziologizm, estetika, emotsiya, jest, mimika, badiiy tahlil, Aristotel, Z. Freyd, temperament, xarakter.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ФИЗИОЛОГИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО И ЭСТЕТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ

Хабиба Атабаевна ЯКУБОВА

старший преподаватель

Учебный центр по безопасности жизнедеятельности

Управления по чрезвычайным ситуациям

Кашкадарьинской области

Карши, Узбекистан

Annotatsiya

В данной статье рассматривается роль физиологии наряду с психологией в анализе художественного произведения, ее значение в отображении человеческих эмоций. Представлены проблемы, связанные с историей физиологизма, его развитием как отдельной области и вхождением в художественный анализ. Мы можем увидеть основу этой мысли во взаимосвязанности нашего тела и мышления. Многие литературные критики считают физиологию и психологию неразделимыми. Но мы постарались в статье показать, что это две отдельные области и что они иногда пересекаются.

Ключевые слова: психология, физиология, эстетика, эмоция, жест, mimika, художественный анализ, Аристотель, З.Фрейд, темперамент, характер.

So'z – u xoh yozma, xoh og'zaki shaklda bo'lishidan qat'iy nazar insonning nafaqat ma'naviy, balki fiziologik holatiga ham ta'sir o'tkazadi. Badiiy asar esa

soʻzlarning obrazli ifodalangan, estetik maʼno tashuvchi jamlanmasidir. U yaratilib, toʻz oʻquvchisini topmagunicha maʼnaviy va psixologik kuch sifatida ishlamaydi. Faqatgina muallif ishlab chiqargan matn sifatida koʻriladi. Uning psixologik va fiziologik kuchi badiiy asar va oʻquvchi dialogi jarayonidagina koʻrina boshlaydi. Dialogik jarayonni ikki yoʻnalishda tavsiflash mumkin. Koʻplab adabiyotshunoslar badiiy asar tahlilida psixologizm va fiziologizm unsurlarini yaxlit birlik sifatida olishadi. Bu fikrni tanamiz va tafakkurimizning oʻzaro bogʻliqligi bilan ifodalashimiz mumkin. Ammo XIX asr oxirlaridan boshlab psixik jarayonlarni oʻrganishga fiziologlar ham qoʻshildi. Biz “estetika” tushunchasini “his qilish”, “sezgilar bilan idrok etish” deb qabul qilganmiz. XVIII asrda bu konsepsiyani A. Baumgarten inson faoliyatida hissiy bilishning maxsus sohasini belgilash uchun ishlatdi. “Estetika tananing nutqi sifatida tugʻilgan” deya izohlagan u” [7;23]. Bu fikrni aniqroq ifodalash maqsadida baʼzi misollarni keltirib oʻtish joiz. Inson stressni boshdan kechirayotganida yoki doimiy tashvishli, xavotirli holatda yashasa uning tanasida kortizol garmoni koʻp miqdorda ishlab chiqariladi. Bu kayfiyatning yomonligi, energiyaning pastligi, ovqat hazm qilishdagi muammolar, immunitet tushishi, ishchanlikning pasayishi kabi qator jismoniy muammolarni keltirib chiqaradi. Muammolar esa oʻz-oʻzidan ruhiyatga taʼsir oʻtkazadi.

Koʻplab adabiyotshunoslar badiiy asar mullifning biror nimadan, misol uchun goʻzallik, yaxshilik, yovuzlik, zulm, adolatsizlik, mehr-muhabbat va hokazolardan taʼsirlanishi tufayli vujudga keladi deb hisoblashadi. Ammo unga qoʻshimcha ravishda psixoanaliz otasi Z. Freyd nazariyasini ham keltirib oʻtishimiz mumkin. Nodira Afoqova uning badiiy ijod toʻgʻrisidagi fikrlarini shunday izohlaydi: “odamning jinsiy mayllari ijtimoiy, axloqiy toʻsiqqa uchrasa, u ong ostiga qaytadi va energiyaning saqlanish qonuniga muvofiq butunlay yoʻq boʻlib ketmaydi. Oradan qancha zamonlar oʻtib, boshqa shaklda, deylik, badiiy ijod, misli koʻrilmagan bunyodkorlik ishlari, intellektual tadqiqotlar, ilmiy kashfiyotlar, umuman, jamiyat uchun qimmatli faoliyat koʻrinishida voqelikka aylanadi” [2;76]. Demak, matnda maʼlum maʼnoda ijodkor shaxsiyati, uning ongosti dunyosi tasviri yotadi. U qahramonlarining psixologiyasi va fiziologiyasi orqali oʻz his-tuygʻulari aksini

ko'rsatadi. Bu tuyg'ular o'quvchiga yuqishi kerak. Biz ishda favqulodda vaziyatlarda inson holati va tuyg'ularini estetik, psixologik yoki fiziologik jihatdan tahlil qilishga uringanmiz. Bunda, asosan, insonning hissiy va estetik faoliyati uchun fiziologik shartlarni topish muhimdir. Adabiy tahlilda hech bir usul yoki fan sohasini mutlaqlashtirish mumkin emas. Bu bilan asarga faqat bir tomonlama, cheklangan tarzda yondashgan bo'lamiz. Fiziologiya ham, psixologiya ham adabiyotshunoslikni o'zlashtirish yoki badiiy asarni tahlil qilishda mutlaq rol o'ynolmaydi. Fiziologiyaning mohiyatidan kelib chiqib yondashsak u faqat inson hissiy va estetik faoliyatining fiziologik mexanizmlarini o'rganishi mumkin, xolos. Misol uchun fiziologiya fanida "ovoz" va "nutq" tushunchalari bor. Ammo bu terminlarning tilshunoslik faniga putur yetkazadigan jihati yo'q. Lekin badiiy asar tahlili ayni shu tushunchalarsiz aniqroq yuzaga chiqmaydi. Chunki qahramonning ovoz ritmi uning holatini, nutqi esa shaxsiyatini ochib berishda ishtirok etadi. Misol uchun badiiy matnlarda go'zal ayolning ovozi mayin, shirali, suhbatlari yoqimli so'zlardan iborat bo'lgan hilqat sifatida, ovozi qo'pol, gapirish usuli dag'al va nomunosib so'zlardan iborat ayol o'z-o'zidan salbiy qarashni keltirib chiqaradi. Biz ovoz ohangini go'zallik va xunuklik tushunchasi bilan nisbiylashtirdik. Ammo ayyor, mehribon, rahmdil, qattiqqo'l, qo'rqqoq, sotqin kabi sifatlar ham ayni so'zlash ohangiga qarab ajratilishi mumkin.

XVIII asrning 70-yillarida "fiziologik estetika"ning turli sohalari Yevropa va Amerikada keng tarqala boshladi. Ingliz yozuvchisi Grant bu yo'nalishga shunday ta'rif beradi: "Estetik tuyg'ularimizning tabiatini fiziologik jihatdan tushuntirish", "go'zallik tuyg'usi va uning asab tizimimiz bilan aloqasini jismoniy harakatlarimizda ko'rsatish" [6;8]. Biroq fiziologiyaning fan sifatida gullab-yashnashi va rivojlanishi, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Ijodiy va retseptiv kontekstda inson fiziologiyasi va estetik kategoriyalar o'rtasida tabiiy muloqot mavjudligi hech qachon inkor etilmagan. Fiziologiyaning fan sifatidagi doirasi ancha keng va u hayotiy jarayonlarni qamrab oladi.

Badiiy matn yaratish va uni idrok etayotgan kitobxonning ijtimoiy-psixologik va hissiy holatlariga alohida e'tibor qaratish, estetikani zamonaviy adabiyot

nazariyasining bir qismi sifatida qabul qilgan holda unga yondosh psixofiziologik momentlarga (matnni o‘qish, uni yaratish jarayonida sodir bo‘ladigan muallifning psixik holatlari, unga mos ravishda tinglovchining ham psixofiziologik jarayonlari) e’tibor qaratish lozim. Bunday jarayonlarning fiziologik dinamikasiga miya bosimining o‘zgarishi, yurak urushining kuchayishi yoki sekinlashishi, asab tizimining reaksiyalari, nafas olish muvozanatining o‘zgarishi, bezlar tizimi, mushaklar tonusining qisqarishi yoki kengayishi kabi holatlar misol bo‘lishi mumkin. Bu kabi jarayonlarni aniqroq ifodalash yozuvchi mahoratiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

“Fiziologik estetika” usullari XIX asrning ikkinchi yarmida ancha shakllanib, rivojlangan bo‘lsa-da uni joriy qilish sekin kechdi. “Muallif - qahramon - o‘quvchi” birligi bugungi kun adabiyotshunosligida muloqotning yakuniy ishtirokchisi reaksiyalarini obyektiv ravishda o‘rganilishiga imkon bermoqda. Muallif badiiy asarni yaratish paytidagi qichqiriq, ko‘z yoshlar, yurish, yugurish, nafas olish me’yorining buzilishi, yuz ifodasi, mushaklar qisqarishi kabi fiziologik xatti-harakatlari qisman uning zamondoshlari tomonidan ko‘plab xotiralarda qayd etilgan yoki adabiy qahramon holatiga ham singdirilgan bo‘ladi. Misol uchun A. Qodiriy o‘zining “O‘tkan kunlar”ini yozayotganida Kumushning zaharlanib o‘lishidan yig‘lagani voqeasini eslaylik. O‘quvchi bu sahnani yurak urishi tezlashgan, bo‘g‘ziga nimadir tiqilgan, mushaklar tonusi qisqargan, asabiylashgan holatda o‘qiydi. So‘nggi daqiqagacha sevimli qahramonining tirik qolishiga umid qiladi. Kumushning o‘limi kitobxon uchun favqulodda, kutilmagan holat. Bunday vaziyatda tushkunlikka tushishi, hatto yig‘lashi ham mumkin. Ushbu vaziyat kutilmagan hodisaga nisbatan kitobxon reaksiyasi. Ammo qahramonining o‘limi muallif uchun kutilgan vaziyat. U senariyni asar hali qog‘ozga tushmasidan, miyada pishiyotgan paytdayoq o‘ylab qo‘ygan bo‘lishi mumkin. Biroq shunda ham Qodiriy yig‘laydi. Kumushning o‘limini istamagan tarzda voqelik o‘zanini o‘zgartira olmay, kitobxon singari ko‘z yoshi to‘kadi. Qahramonlar va lirik mavzular fiziologiyasi ham poetikaning muhim bir qismidir.

Muallif uchun fiziologiyani tushunish qahramoni psixologiyasini ochishda muhim sanaladi. Chunki adabiy qahramon portreti, xarakteri va u yashayotgan atmosfera ko‘rinishini chizish psixologiya, fiziologiya, filologiya va falsafaning o‘zaro mujassamlashuvi orqali sodir bo‘ladi.

Psixologiya va fiziologiya mohiyatan bir-biriga bog‘liq fan bo‘lgani bilan o‘zaro farqli jihatlari ham talaygina. Ular tana harakatlari va ruhiyat jarayonlarini o‘rganuvchi ilmlardir. Inson organizmida sodir bo‘ladigan biologik jarayonlarni fiziologizm, tafakkur, idrok, his-tuyg‘ular bilan bog‘liq aqliy va hissiy jarayonlarni psixologiya o‘rganadi. Ularning o‘zaro munosabati bizning hatti-harakatlarimiz va hissiy holatimizga ta’sir qiladi. Bu ikki fan dastlab, tibbiyot negizida shakllangan bo‘lib, keyinchalik badiiy asar tahlili metodi sifatida adabiyotshunoslikka kirib keldi. Avstriyalik psixoterapevt Z. Freyd XIX asr oxiri XX asr boshlarida psixoanalizga asos soldi va u buni adabiy tahlilda ham qo‘llash mumkinligi haqidagi fikrlarini bayon qildi. Inson stress, xursandchilik, qayg‘u, qo‘rquv holatida bo‘lganida organizmida biologik jihatdan qaysidir garmonlar ko‘payadi yoki kamayadi. Bu omil kayfiyatga, ruhiyatga va tashqi a’zolar harakatiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, insonda vahima boshlanganida yurak urishi tezlashadi, terlaydi hamda tanasida titroq boshlanadi.

Inson psixologiyasi muvozanatini ta’minlashda fiziologiyaning roli katta ekani qadimdan ma’lum bo‘lgan. Misol uchun turli meditatsiyalar, nafas olish, yoga mashqlari kabi usullarni keltirib o‘tish mumkin. Garchi, fiziologiyaga nisbatan yangi soha, yangi yo‘nalish sifatida qaralsa ham mohiyatan uning ildizlarini Aristotelning “Muammolar” nomli risolasidan topish mumkin. Aristotel ushbu asarida mualliflarning o‘ziga xosligini xarakteridagi qora safro ustunligi bilan izohlagan. Biz bugungi kunda “muallif fiziologiyasi” deb ataydigan tushunchaning asosi romantizm paydo bo‘lgunga qadar mavjud bo‘lgan neyrohumoral nazariya va temperamentga borib taqaladi. Yevropada XVII asr ijodkori R. Burtonning “Melanxolik anatomiyasi” asarida muallif xarakterining namoyon bo‘lish sabablarini tashqi ta’sirlardan emas, balki uning ichki a’zolaridan kelib chiqadigan kasalliklar va holatlardan qidirish kerakligi ta’kidlanadi. Shu o‘rinda

melanxoliyaning tibbiyot va psixologiya bilan bog'liq jihatlariga to'xtalib o'tmaslik mumkin emas. Melanxoliya – qahramonning eng muhim ruhiy va hissiy holatlaridan biri. Uyg'onish davri Yevropa madaniyatida “melanxolik” ning ramziyligi “qora safro”da ko'ringan va u ko'pincha “oq safro” bilan solishtirilib salbiy tarzda ifodalangan. “Qora safro” suyuqligini taloq, “sariq safro”ni jigar ishlab chiqaradi va Gippokrat ta'limotidagi to'rtta unurning qaysi biri yuqoriligiga qarab insonning temperamenti aniqlanadi. XIX asr boshlaridagi Yevropa adabiyotida o't, taloq va jigarga alohida e'tibor qaratilib, ular qahramonning xafaqonligi, g'azabi, ijtimoiy muhitga satirik munosabatdaligi, o'tkir kulgu va kinoyasi tarzida ifodalangan.

Psixolog va fiziologlar o'rtasida mushtarak fiklar bo'lishiga qaramay, qarama-qarshi nazariyalar ham bugungi kungacha uchraydi. Fiziologlarning ko'pchiligi miya bilan bog'liq va ruhiy xususiyatga ega bo'lgan harakatlar fiziologiya fani doirasida emas, bu harakatlar faqat refleks yoki fiziologik reaksiyalardir deb tushunturishadi. Sodaroq qilib aytsak, kutilmagan vaziyatlar, favqulodda holatlarda inson tabiiy ravishda harakat qiladi. Ya'ni hayotiga xavf tug'ilganda, qorni och qolganida, sovuqotganida, jaziramada, cho'kib ketayotganida va hokazo holatlarda. Inson bunday vaziyatda tabiiy harakat qiladi.

XX asrda amalga oshirilgan fiziologik tadqiqotlar bugungacha davom etmoqda. Bunday yondashuvlar fiziologik jarayonlarni muvaffaqiyatli o'rganish imkonini bersa-da, psixologiya bilan o'rta jiddiy to'siq qo'yadi. Taniqli fiziolog Charlz Sherrington ushbu yondashuvga amal qiladi va refleks nazariyasini “Asab tizimining integral faoliyati” asarida keng tushuntiradi. Uning fikriga ko'ra, reflekslar asab tizimidagi murakkab va interaktiv jarayonlarning eng oddiyi va u bir butun sifatida ishlaydi. Muallif psixik hodisalar fiziologiya doirasidan tashqarida deb hisoblagan. Psixologik yondashuvlar va tushunchalarni psixologiyadan fiziologiyaga o'tkazishni xohlamagan.

Rus fiziologi I.M. Sechenov “Miya reflekslari” kitobida aqliy jarayonlarga fiziologik yondashuvni asoslashga urinadi. Boshqacha aytganda, psixika va miya o'rtasidagi fundamental bog'liqlikni va miyadagi barcha jarayonlarni fiziologik usullar yordamida o'rganishning nazariy imkoniyatlarini ko'rsatishga urinadi.

Keyinchalik, Sechenov fikrlari asosida har qanday asabiy faoliyatning refleks tabiati haqidagi g'oya isbotlandi va dunyo fiziologiyasi va psixologiyasi rivojiga hissa qo'shdi. I.P. Pavlov "Fiziologning psixologlarga javobi" nomli asarida har qanday ruhiy jarayonlarning moddiy asoslari miya bilan bog'liqligini ta'kidladi. Shunday qilib, aqliy jarayonlarning miya bilan moddiy bog'liqligi printsipli refleks printsipli bilan qattiq bog'liq holda qabul qilingan, chunki o'sha paytda fiziologiyada refleksdan tashqari boshqa ishlab chiqilgan uslubiy ta'limotlar yo'q edi. Ammo fiziologiya fanidagi refleks ta'limoti nihoyatda chegaralangan nazariya. U insonning barcha jismoniy harakatlari mantig'ini to'la ochib berolmaydi. Insonning hissiy ma'lumotlari asab tizimi qismlarining funksiyasi bilan belgilanadi va bu funksiyalarning eng soddasi refleks. Rus psixologi I. P. Pavlov refleksni quyidagicha izohlaydi: "bu asab tizimi orqali sodir bo'ladigan organizmning tashqi dunyoga reaksiyasi va asabiy jarayonga aylanadigan tashqi vositadir, u yoki bu organga yetib boradi va o'sha joyning faolligini keltirib chiqaradi. Bu reaksiya o'ziga xos va doimiydir" [5;76]. I.P. Pavlov badiiy ijodni alohida tahlil qilmagan bo'lsa-da, uning fiziologik nazariyasidan badiiy asar tahlilida samarali foydalanish mumkin.

XVI–XVIII asrlarda fiziologiyaning mustaqil fan sifatida mustahkamlanishi neyrofiziologiya va estetikaga yo'nalishini ta'minladi. Bunda og'zaki va yozma badiiy tasvirlarni ifodalash va idrok etishga nisbatan hissiy sezgilar tizimini shakllantirdi. Adabiyotning e'tibori, nafaqat, ruh va hislar tasviri, tananing ham tashqi muhit bilan aloqalarini ifodalashga urindi. Shu bilan birga bunday tasvirni tahlil qilish uchun fiziologiyaga ehtiyoj ortdi. Badiiy matndagi obrazlar timsolida bir tomondan odamni o'rab turgan obyektiv dunyoning shakllarini, ikkinchi tomondan, tuyg'ular oqimida muallifning dinamik tana olamini ifodalaydi, shuning uchun tahlilni bir vaqtning o'zida ham obyektiv, ham tanaviy (fiziologik) doirada olib borish mumkin. Bu jarayonda inson asab tizimi faoliyati, markaziy asab tizimiga signal yuboradigan turli retseptorlar idrok fiziologiyasini vujudga kelishini ta'minlaydi. Badiiy matnda tashqi muhitga bo'lgan reaksiyadan emas, balki asar mavzusi doirasida shakllanadigan va turli tana hatti-harakatlarida ro'yobga chiqadigan ta'sirlarning fiziologik ko'rinishlari ko'plab beriladi.

Keyinroq “muallif fiziologiyasi” degan tushuncha shakllandi. Fransuz adabiyoti vakili E. Zolya “Eksperimental roman” asarida adabiyotni yozuvchi kuzatuvchi va eksperimentator rolini bajaradigan fiziologik laboratoriyaga o‘xshatadi. U o‘z fikrlarida ichki va tashqi omillarning muallifga ta’sirini tahlil qiladi. Muallif qaysi irq, qaysi millat vakili ekani, uning jinsi, yoshi, temperamenti, sog‘lig‘i kabi unsurlarga e’tibor qaratadi. Belgilangan omillar muallif va personajlarning xulq-atvorini belgilovchi patofiziologik jihatlardir. Yigirmanchi asrning boshlarida “fiziologiya” lug‘aviy ma’nosiga asosan faqatgina tirik organismzlarning ishlsh qonuniyatlarini o‘rganadigan fan emas, umuman, “tabiat” haqidagi ta’limot sifatida so‘zning ichki shakliga diqqat qarata boshladi. Bu nazariyaning Aristotel “mimesis”idan farqi san’at tabiatning bir bo‘lagi sifatida tushuniladi.

Biz tarixini o‘rganayotgan badiiy asar tahlilida fiziologizmning qo‘llanishi masalasi XVIII–XIX asrlarda kashf etilgan bo‘lsa-da, bu nisbatan eski tushuncha. Chunki badiiy asarlar yozila boshlanganidan beri “organizm” va “fiziologiya” metaforalari qo‘llanilgan. Rus adabiyotshunosi Gumilyov yuqoridagi jarayonga shunday ta’rif keltiradi: “She’rlarning tug‘ilishi tirik organizmlarning kelib chiqishiga o‘xshaydi. Shoirning ruhi tashqi olamdan goh yorug‘ lahzalardan, gohida tushlar va noaniq xayollardan turtki olib hali pishib yetilmagan, ijod embrionini kelajakka ko‘tarib ketishga majbur bo‘lib yurganga o‘xshaydi” [3;53]. Har qanday tirik organizm kabi badiiy asar ham o‘z anatomiyasi va fiziologiyasiga ega. Adabiyotshunos fikrlarini davom ettirarkan kitobxonga izohni shunday beradi: “Badiiy asardagi so‘z birikmasida she’rning go’shtini ko‘ramiz. Ularning xossalari va sifati stilistikaning predmetini tashkil etadi. Bu so‘z birikmalari bir-birini to‘ldirib, ma’lum taassurot uyg‘otadi va she’rning asosini, kompozitsiyasini sezamiz. O‘zimiz uchun obrazning butun mohiyatini, shoirni yaratishga undagan tuyg‘uni, muallifning asab tizimini oydinlashtiramiz va shu unsurlar orqali badiiy matnni o‘zlashtiramiz. Nihoyat, e’tiborimiz baytning qon kabi tomirlaridan oqib o‘tadigan tovush tomoniga (ritm, qofiya, unli va undoshlar birikmasi) qaratiladi va

biz uning mazmunini tushunamiz. Bu fonetikadir. Badiiy matnga bu hislatlarning barchasi xosdir” [3;240].

Badiiy adabiyotning e’tibori, nafaqat, ruhiyat, balki tananing tashqi muhit bilan aloqalaridagi sirli bog‘liqlikka ham qaratilishi lozim. Adabiy asardagi obrazlarni kishini o‘rab turgan obyektiv dunyo va qahramoni his etayotgan tuyg‘ular fonida yangi hissiyotlarni boshdan kechirayotgan muallifning tana olamini ham birday ko‘rib chiqish kerak. Sababi inson asab tizimining ishlashi, unga signal yuboradigan turli retseptorlarni nazarda tutuvchi idrok fiziologiyasi mavjuddir. Bunda tashqi muhitga bo‘lgan reaksiyadan emas, balki asar mavzusi doirasida vujudga keladigan va turli tana ko‘rinishlari holatida ro‘yobga chiqadigan favqulotda kechinmalardan kelib chiqadigan ta’sirlarning fiziologik ko‘rinishlarini eslab o‘tish joiz.

Adabiyotda fiziologiyaning psixologik jarayonlar bilan omuxta ifodalanishi tarixi sharqda ancha oldinroqqa borib taqaladi. O‘zbek mumtoz adabiyoti insonning ichki dunyosini tasvirlashda yuksak badiiy cho‘qqilarni zabt etgan. Xususan, Navoiy asarlarida qora, oq, qizil, za’faron, sariq, qahrabo ranglarini qahramonining nafaqat ruhiy, balki jismoniy holatini berishda ham unumli foydalangan. Y.Is‘hoqovning ma‘lumot berishicha: “Xazoyin ul-maoniy”da rang bilan bog‘liq holda 31 ta g‘azal “G‘aroyib us-sig‘ar”da 9 ta, “Navodir ush-shabob”da 7 ta, “Badoye ul-vasat”da 8 ta, “Favoyid ul-kibar”da 7 ta bor [4].

Ya‘ni ko‘rubon oni Qays mahzun,
Ruxsorini qildi *kahrabogun*.
Ham chehrasi rangi *kahrabodek*,
Ham ko‘nglida qo‘zg‘olon sabodek.
yoki
Sorig‘ gul uza sabuhi yomg‘ur,
Oltun tabaq ichra ko‘rguzur dur.
Yoxud yaraqon o‘tin qilib tez,
Sorig‘ yuziga bo‘lur araq rez.

“Layli va Majnun” dostonidan keltirilgan ushbu parchalarda Qaysning Laylini ko‘rgandagi holati ifodasi berilgan bo‘lib yuzining naqadar so‘lg‘in tortgani, qahrabo kabi sap-sariq tusga kirgani tarzida ifodalangan. Keltirilgan ikkinchi baytda esa sariq gulning ustiga tushgan tomchilar sariq kasali bilan og‘rigan odamning yuziga qalqqan ter tomchilariga o‘xshashi ko‘rsatiladi.

Hazrat Navoiy qora rang tasviridan ham unumli foydalangan holda misralarida ushbu rangni ham ijobiy, ham salbiy sifatlarda ishlatadi. Bir o‘rinda yor qosh-u ko‘zining go‘zalligini bersa, boshqasida oshiqning baxtsizligi va boshiga tushgan balolar ko‘lamini ko‘rsatadi.

Nargiz arilmay marazidin arig‘,
Ko‘zlari ayni yaraqondin sarig‘.
Ko‘z tikibon suvg‘ay rangi sinib,
Sabzani suv ichra balig‘ sog‘inib.

Misraning nasriy bayonini quyidagicha ifodalash mumkin:

Nargis sarig‘ kasaliga yo‘liqqani uchun ko‘zlari sarg‘ayib ketgan, bemorlikdan xalos bo‘lmagani uchun ozg‘in. Shu sababli u rangi siniqqan holda suvdagi o‘tlarni baliq gumon qilib, ularga tikilib turadi.

Navoiyshunos olim O. Avaznazarov baytni tabobat bilan bog‘lab tahlil qilgan. Ma‘lumki, bugungi kunda ham sariq kasali bilan og‘rib, sog‘ayib ketgan bemorga tirik baliqqa uzoq tikilib turish buyuriladi. Natijada baliq bemordagi sariqlikni o‘ziga tortib olib halok bo‘lar emish. Alisher Navoiyning ushbu misralari ma‘lum darajada u kishining tibbiy bilimlaridan bizni xabardor qilish barobarida bunday davolash usuli juda qadimiy ekanligini ham ko‘rsatadi.

Yoki Lutfiyning:

Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma, *Qondur jigarim*, xoh inon, xoh inonma

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh, Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma

satrlari bilan boshlanuvchi g‘azalini olaylik. Jigar inson organizmidagi muhim a‘zo. U tanada filtr vazifasini bajaradi va uning kasallanishi boshqa a‘zolarga ham

ta'sir ko'rsatadi. Oshiq mashuqa firog'ida umidsiz, tushkunlikka tushgan kayfiyati jigarning qon bo'lishi, uning kasallanishi tarzida berilyapti.

Klassik adabiyotimizda xarakter yaratish uchun psixologik va fiziologik unsurlardan foydalanishga oid yana ko'plab misollar keltirib o'tishimiz mumkin. Adabiyotshunosligimiz ilmida esa bu ikki hodisani tahlil qilishga XX asrning dastlabki choragida urinish boshlangan. Xususan, Abdulla Qahhor hikoyalarini tahlil qilgan A. Alimuhammedov qahramon psixologiyasini yoritishga oid usullarni ko'rsatib o'tadi. "Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir" maqolasida rus yozuvchisi Chexovning psixologizm yaratishga oid fikrlarini Qahhor o'z ijodida ko'rsatganini alohida ta'kidlaydi. "Kishining qayg'u va alamlarini qo'l va oyoq bilan emas, balki haqiqatda ularni biz qanday ko'rsak, shu ravishda, yuz-ko'zda, kishining avzoyida, so'zining ohangida bo'lgan o'zgarishlar bilan dag'al harakatlar bilan emas, ingicha imolik iboralar bilan tasvir qilmoq kerak" [1;53] deya eslatib o'tadi. Lekin olim aynan psixologizm va fiziologizmni alohida-alohida sharhlamagan. Bu tushunchalarni umumiy ifodalaydi. U qahramon ruhiyatini va tashqi a'zolar holatini ishonchli tasvirlashda yozuvchi amal qilishi kerak bo'lgan jihatlarni belgilaydi va A. Qahhor uslubida ushbu detallarni birma-bir keltirib o'tadi. Adabiyotshunosning yozishicha qarash, sukut saqlash, kulgu, yig'i, qaltirash, tashqi a'zolar holati va hattoki voqelikda ishtirok etgan detallar ham badiiy matnda ifodalangan obrazning psixologiyasini ochib berishda xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алимухамедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир. Ўзбек адабий танқиди. Антология. – Тошкент: Турон-иқбол, 2011.
2. Afoqova N. Navoiy va psixoanaliz //Tafakkur, 2022. – № 3. – B. 76.
3. Гумилёв Н.С. Полное собрание сочинение: в 10 т. – Москва: Воскресенье, 1998.
4. Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
5. Павлов. И. П. Ответ физиолога психологам. – Санкт-Петербург, 1999.
6. Allen, G. Physiological aesthetics / G. Allen. – New York: Appleton, 1877 – 283 p. № 4 (51) 2022 43

7. Eagleton, T. The Ideology of the Aesthetic / T. Eagleton. – Cambridge: Athenaeum Press, 1990. – 437 p.